




## ELEKTRON O'LCHASH ASBOBLARI



Qodirova Dilnoza Yusupovna

Farg'onha shahar 1-sonli politexnikum

Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Maxsus fanlar

**Annotatsiya:** Elektron o'lhash asboblari fizikaviy kattaliklarni (kuchlanish, tok, qarshilik, chastota, quvvat va h.k.) aniq o'lhash uchun mo'ljallangan qurilmalardir. Ushbu asboblar sanoat, ilmiy tadqiqotlar, telekommunikatsiya, tibbiyot va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Ushbu qo'llanmada elektron o'lhash asboblarining turlari, ularning ishlash prinsiplari va texnik xususiyatlari yoritiladi. Asosiy e'tibor multimetrlar, osillograflar, spektr analizatorlari, signal generatorlari va boshqa zamonaviy o'lhash qurilmalariga qaratilgan.

Shuningdek, elektron o'lhash asboblarini tanlash, kalibrlash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu material texnika sohasi mutaxassislari, muhandislar va talabalar uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar:** Elektron o'lhash asboblari, multimetr, osillograf, spektr analizatori, signal generatori, voltmetr, ampermetr, chastota o'lhash, qarshilik o'lhash, kalibrlash, aniq o'lchov, laboratoriya asboblari, elektronika, o'lhash texnologiyalari.

Inson aql-idroki, zakovati bilan o'rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi fanni, uning yo'nalishini olmaylik, albatta, o'lhashlarga, ularning usullariga, o'zaro bog'lanishlariga duchkelamiz. Ayniqsa fizik elektr asboblari o'lhash usullari va vositalari yordamida har xil kattaliklarni o'lhash va



ularga bog'liq masalalarni mukammal o'rganish orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababdan, hozirgi qaysi bir fan, ilmiy yo'naliш, u xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo'lmasin, albatta elektr energiyasi ta'minoti bilan bevosita bog'liq. Inson qo'li yetgan, faoliyati doirasiga kirgan, ammo, o'lchashlarsiz o'rganilgan, izlangan hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan biron ta'minot bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham elektr o'lchashlar asoslarini bilish, uni o'z mutaxassisligi doirasida tushunish va amaliyqo'llash har bir fizika yoki texnika yo'naliшidagi mutaxassislar tayyorlashda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan elektron o'lchash asboblari kundalik hayotimiz va sanoat jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron qurilmalarning ishonchliligi va samaradorligi bevosita ularning parametrlarini aniq o'lchashga bog'liq. Shu sababli, har qanday muhandis, texnik yoki tadqiqotchi uchun elektron o'lchash asboblarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish zarurdir.

Ushbu qo'llanmada elektron o'lchash asboblarining turlari, ularning ishslash prinsiplari, texnik xususiyatlari va qo'llanilish sohalari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'lchash asboblarining aniqligi va ishonchliligin ta'minlash uchun kalibrlash va texnik xizmat ko'rsatish masalalari ham yoritiladi.

Mazkur material muhandislik va texnika yo'naliшidagi mutaxassislar, talabalar hamda elektronikaga qiziqqan barcha uchun foydali bo'ladi.

Biz hozir ba'zi elektr o'lchov asboblarning ishslash prinsiplari haqida muhim ma'lumotlarni keltirmoqchimiz. Tok kuchi ampermestr asbobi bilan o'lchanadi. Ampermestr qarshilikga ketma ket qilib ulanadi. Ampermestr yordamida tok kuchini o'lchashdan maqsad ampermestr yordamida haqiqiy tok kuchini olishdir. Hech qachon ampermestr tok tarmog'iga parallel qilib ulanmasligi kerak. Chunki, ampermestr qarshilikka parallel ulanganda uning ichki qarshiligi ancha kichik bo'lganligi sababli undan ancha katta tok o'tadi va ushbu tokka o'zi dosh bera olmasdan kuyib qolishi, ishdan chiqishi mumkin.

Elektron o'lhash asboblarining turlari. Elektron o'lhash asboblari o'lchanadigan fizik kattalik va ularning ishlash printsipiga qarab turli toifalarga bo'linadi:

Multimetrlar – kuchlanish, tok va qarshilikni o'lhash uchun ishlatiladi. Raqamli va analog turlari mavjud.

Osillograflar – elektr signallarining vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rsatadi, chastota, amplituda va impuls parametrlarini o'lchaydi.

Spektr analizatorlari – signal tarkibini chastota bo'yicha tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Telekommunikatsiya va radiochastota tarmoqlarida muhim ahamiyatga ega.

Signal generatorlari – test va diagnostika maqsadida har xil shakldagi elektr signallarini yaratadi.

Chastota o'lchagichlar – elektr signallari chastotasini yuqori aniqlikda o'lchaydi.

LCR metrlar – induktivlik (L), sig'im (C) va qarshilik (R) ni aniq o'lhash uchun ishlatiladi.

Quvvat o'lchagichlar – elektr zanjirlaridagi quvvat sarfini aniqlashga yordam beradi.

Elektron o'lhash asboblarining ishlash prinsiplari. Elektron o'lhash asboblari signallarni aniqlash, ularni o'lhash va ma'lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etish tamoyili asosida ishlaydi. Ko'pgina zamонавиyl qurilmalar raqamli protsessorlarga ega bo'lib, o'lchov natijalarini aniq va tezkor qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Analog o'lhash asboblari mexanik yoki elektromagnit prinsip asosida ishlaydi.

Raqamli o'lhash asboblari elektron signallarni raqamli shaklga o'tkazib, display orqali natijalarni aniq va qulay formatda taqdim etadi.

Elektron o'lhash asboblarining qo'llanilishi

Elektron o'lhash asboblari turli sohalarda keng qo'llaniladi:

Elektronika va elektrotexnika – elektron qurilmalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

Telekommunikatsiya – radiochastota signallarini tahlil qilish va tarmoqlar sifatini nazorat qilish.

Tibbiyot – yurak monitorlari, EEG va boshqa tibbiy asboblarni tekshirish.

Sanoat va ishlab chiqarish – elektr motorlar, generatorlar va energiya tizimlarini nazorat qilish.

O'lhash aniqligi va kalibrlash. Aniq o'lchovlarni ta'minlash uchun asboblarning kalibrланishi juda muhim. Kalibrlash maxsus laboratoriyalarda standart o'lhash vositalari yordamida amalga oshiriladi. Kalibrlash jarayoni o'lhash natijalarining ishonchlilagini oshiradi va xatoliklarni minimallashtiradi.

### Xulosa

Elektron o'lhash asboblari zamonaviy texnologiya va sanoat sohalarida muhim o'rin tutadi. Ular elektr va elektron tizimlarning ishlash samaradorligini baholash, diagnostika qilish va sifat nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Multimetrlar, osillograflar, spektr analizatorlari va boshqa o'lhash qurilmalari elektronika, telekommunikatsiya, tibbiyot va sanoatning turli jahbalarida keng qo'llaniladi.

O'lchov natijalarining aniqligi va ishonchlilagini ta'minlash uchun asboblarning to'g'ri ishlatalishi, muntazam kalibrланishi va texnik xizmat ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Raqamli o'lhash texnologiyalarining rivojlanishi natijasida zamonaviy asboblar yanada aniq, ishonchli va qulay bo'lib bormoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. P.Ismatullayev, Sh.Qodirova, G'.G'oziyev. "Elektr o'lchash asboblarini rostlash va ta'mirlash". Sharq. Toshkent. 2017.
2. M.B.Dusmuratov. "Fizika". Toshkent. 2016.
3. asenergi.com4. micro-pi.ru
4. А.Ж. Сейтов, Ф.Х. Абдумавлонова. Решение геометрических задач с помощью математического пакета MAPLE. Academic research in educational sciences, 2021. Т.2 №6 Рр.933-941.
5. S.Kh.Khasanova A.J.Seytov, A.J. Khurramov, S.N.Azimkulov, M.R.Sherbaev, A.A.Kudaybergenovю. Optimal control of pumping station operation modes by cascades of the Karshi main canal. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 2021. Tom 8. №4. Pp. 17177-17185.